

**BOSHLANG'ICH SINFLARDA "TARBIYA" FANINI O'QITISHDA IJODIY  
TOPSHIRIQLARNING O'RNI VA AHAMIYATI**

**Dadajonov Zafarjon**

*Rishton tumani*

*10-maktab o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarini ijodiy topshiriqlarini mustaqil bajara olishi, ayniqsa Tarbiya darslarida bu topshiriqlarning o'rni va ahamiyati haqida atroflicha fikr mulohazalar yuritilgan.*

**Tayanch atamalar:** *O'quvchi, tarbiya, ko'nikma, yosh o'quvchi, topshiriq, maktab, ijod, manaviy tarbiya, mushohada, maslahat, baho, maqsad.*

**Аннотация:** *В данной статье рассматривается способность учащихся начальных классов к самостоятельному выполнению творческих заданий, особенности роли и значения этих заданий на занятиях по обучению.*

**Ключевые слова:** *Ученик, образование, мастерство, юный ученик, задание, школа, творчество, духовное воспитание, наблюдение, совет, оценка, цель.*

**Abstract:** *In this article, the ability of elementary school students to independently complete their creative tasks, especially the role and importance of these tasks in education classes, is discussed.*

**Basic terms:** *Student, education, skill, young student, assignment, school, creativity, spiritual education, observation, advice, assessment, goal.*

O'quv topshiriqlari mazmun, funksiyalariga ko'ra keng hodisa bo'lib, o'quv topshiriqlarining quyidagicha tiplari qayd etilgan: o'quv materialini o'rganishga tayyorlovchi, o'quv materialini bevosita o'rganishga daxldor, o'quv materialini mustahkamlashga aloqador o'quv topshiriqlari. Zero, ular o'quv faoliyatini amalga oshirish vositalari - bilish faoliyatiga mansub ijodiy topshiriqlardir. Ijodiy topshiriqlar bolalar tafakkuriga mo'ljallangan vazifalar bo'lib, bilish faoliyatini amalga oshirish yo'li bilan hal etiladi. Ular o'quv materialini doirasida tashkil qilinadi. Ularni bajarish jarayoni bolalarning amaliy faoliyatidan boshlanadi. Bola amaliy faoliyatdan xulosalar chiqarishga qarab boradi. Ijodiy topshiriqlarni bajarish yo'li bilan o'quvchi asta-sekin bilish jarayoni xususiyatlarini o'rganadi, ijod qilish jarayoni sirlarini ham o'zlashtiradi. "Tarbiya" fanini o'qitishda ijodiy topshiriqlar vositasida bolalar maktab ta'limi doirasidan tashqariga chiqish yo'llarini ham o'rganadi. Ijodiy topshiriqlar o'quv topshiriqlari bilan ta'limiy muammolar orasidagi oraliq zveno hisoblanadi. Ijodiy topshiriqlarni bajarish o'quvchilarda muammolarni hal qila olish va ijodkorlikni shakllantiradi.

O'quvchilarning bilish faoliyatini tashkil etishning yetakchi vositasi ijodiy topshiriqlardir. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining "Tarbiya" faniga mo'ljallangan ijodiy topshiriqlar o'quvchilarning kuchi yetadigan, o'quv materialining barcha tarkibiy qismlarini

o'ziga qamrab oladigan, o'quvchilarni bilishga rag'batlantiradigan shaklda tuzilishi lozim. Ijodiy topshiriqlar o'quvchilarning bilish faoliyatiga mo'ljallab tuzilgan, o'quvchini amaliy faoliyatdan xulosalar chiqarishga yetaklaydigan, ularni mustaqil fikrlash hamda izlanishga rag'batlantiradigan vazifalardir. Didaktikada haligacha ijodiy topshiriqlarning ilmiy asoslangan tasnifi mavjud emas. Shu tufayli ularni material va o'zlashtirish jarayonidagi funksiyalariga ko'ra ikki tomonlama tasnif qilish mumkin.

1. O'quv material tarkiban bilimlar tizimi, ko'nikma va malakalar, ijodiy faoliyat tajribasi, munosabatlardan iborat. Ana shu tarkibiy qismlarga ko'ra ijodiy topshiriqlarning to'rt tipini ajratamiz:

A. Yangi bilimlarni qayd etishga oid ijodiy topshiriqlar. Bunday topshiriqlarni bajara turib, bolalar o'zlari uchun yangi xulosalar chiqarishadi.

B. Ko'nikma va malakalarni yanada takomillashtirishga oid ijodiy topshiriqlar. Bunday topshiriqlar vositasida o'rganilgan bilimlarning doirasi yanada kengaytiriladi, malakalar takomillashtiriladi.

V. Ijodiy faoliyat tajribasini o'zlashtirishga oid topshiriqlar. Bu xildagi ijodiy topshiriq vositasida bolalar yangicha faoliyat usulini egallab olishadi.

Masalan 4-sinf "Tarbiya" darsligida: Xalq g'amida tepmagan yurak yurak emas. (G'.G'ulom.) Shoir aytgan gapni kimdir xato ko'chirgan: gapda "yurak" so'zi ikki marta takrorlangan. Takrorlangan ikkinchi "yurak" so'zini qanday so'z bilan almashtirsa bo'ladi? Bolalar fikrlashib, gapni quyidagicha tuzatib yozishadi: Xalq g'amida tepmagan yurak qalb emas. (G'.G'ulom.) Bu topshiriqda xato yozilgan (takrorlangan) so'zni uning ma'nodoshi bilan almashtirish yangicha faoliyat usulini egallashdir.

1. Munosabatlarni shakllantirishga oid ijodiy topshiriqlar. Shunday yo'llar bilan bolalarda o'ziga, o'zgaralar faoliyatiga munosabat shakllana boshlaydi.

2. O'quv materialini mustaqil o'rganish jarayonida bajaradigan ishiga qarab ijodiy topshiriqlarning yana 4 tipini ajratamiz. 1-tip ijodiy topshiriqlar. Bu tipga mansub ijodiy topshiriqlarning asosiy mohiyati o'rganilayotgan real ob'yektning xususiyatlarini mustaqil ajratish, ularni tahlil qilish, oldin o'zlashtirilgan ob'yektlarga taqqoslash, farqlarni bilish, faktlar asosida yangi bilimlarni qayd etishdan iborat.

1-tipdagi ijodiy topshiriqlarni bajarish va undan xulosalar chiqarish jarayoni bolalarning amaliy faoliyatidan boshlanadi. Bola o'z amaliy faoliyatidan o'tgan bog'lanishlar, faktlardan xulosa chiqaradi. J. Bruner bolalarning bilish jarayonini tahlil qila turib, shunday deb yozgan edi: "Tugun to'g'risida tasavvur (bilim)ga ega bo'lish uchun uni hosil qilish va yechish, uning obrazini ongda gavdalantirish, uni so'z vositasida aytish lozim". Binobarin, 1-tip ijodiy topshiriqlardan maksimum samara olish uchun bolalar topshiriqlarni amaliy bajarishi, o'rganilayotgan ob'yektning aniq his qilingan xususiyatlarini ajratishi (1), ob'yektdan mustaqil xulosa (bilim) chiqarishi (2) va o'zi mustaqil chiqargan xulosani erkin aytib berishi (3) lozim.

1-tip ijodiy topshiriqlarga misol keltiramiz: Siz suvda hamda quruqlikda yashaydigan hayvonlarni bilasiz. Suvda ham, quruqlikda ham yashaydigan hayvonlarni eslab, ularning nomlarini, tanasining tuzilishini, hatti-harakatlarini aytib berishga tayyorlaning.

2-tip ijodiy topshiriqlarning bosh xususiyati o'rganilgan bilimlarni yangi o'quv sharoitlariga tatbiq etish bilan xarakterlidir. 2-tip ijodiy topshiriqlarni bajarishda bolalarning bilish faoliyati o'rganilgan bilimdan amaliy faoliyatga qarab boradi. Shunday qilib, 1-va 2-tip ijodiy topshiriqlar ta'limda bir-birini to'ldirish vazifasini bajaradi, bolalarning amaliyotdan xulosaga (bilimga), bilimdan amaliyotga qarab borishini ta'minlaydi.

3-tip ijodiy topshiriqlar ikki yoki undan ortiq bilish ob'yektlari asosida tuziladi. Ularning mohiyati bir nechta mavzu bo'yicha o'rganilgan ob'yektlarni taqqoslash, ularning o'xshash va farqli tomonlarini ajratish, o'zaro yaqin mavzulardan umumiy xulosalar chiqarishdan iborat.

4-tip ijodiy topshiriqlarning asosiy vazifasi o'rganilgan mavzular, o'zlashtirilgan o'quv predmetlari doirasida o'zi, sinfdosh o'rtoqlari erishgan natijalarni tekshirish, tahlil qilishdan iborat.

Shunday qilib, bilishga oid topshiriqlar materiali, ta'lim jarayonida bajaradigan ishiga ko'ra tasnif qilinadi. Ular o'quv topshiriqlari va ijodiy topshiriqlar o'rtasidagi oraliq vosita hisoblanadi. Bilishga oid topshiriqlarni bajargan o'quvchilar ijodiy topshiriqlarni bajarishga ham yetarli tayyorgarlik ko'rgan sanaladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Вкготский Л.С. Педагогическая психология. – М., 1996. – С.84.
2. Коротов В.М. Идущему на первые уроки. – М., 1971. – С.15.
3. Milliy istiqloq g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoillari. – Т.: O'zbekiston, 2000. – В.30-34.
4. Yo'ldoshev J.G'. Ta'lim yangilanish yo'lida. – Т.: O'qituvchi, 2000. – В.35.
5. Фукина Г.И. Проблема познавательного интереса в педагогике. – М., 1971. – С. 53-54.
6. Ахмаджонов Н. Analysis of poetonyms used in poetry // International Scientific Journal ISJ Theoretical & Applied Science Philadelphia, USA issue 12, volume 104 published December 30, 2021 P. 509-512 Impact Factor: Philadelphia, USA ISRA (India) = 6.317 ISI (Dubai, UAE) = 1.582 GIF (Australia) = 0.564 JIF = 1.500 SIS (USA) = 0.912 ПИИЦ (Russia) = 3.939 ESJI (KZ) = 9.035 SJIF (Morocco) = 7.184 ICV (Poland) = 6.630 PIF (India) = 1.940 IBI (India) = 4.260 OAJI (USA) = 0.350 (N 23)
7. Ахмаджонов Н. Analysis of poetonyms in prose works // International interdisciplinary research journal (giirj) Volume 10, Issue 2, February, 2022 ISSN: 2347-6915 SJIF Impact Factor: 7.472 P. 487-490 (N 23)
8. Ахмаджонов Н., Шукуров Р. Precedent names in the artistic text as allusive names // ACADEMICIA, An International Multidisciplinary Research Journal ( Double Blind

Refereed & Peer Reviewed Journal) ISSN: 2249-7137 Vol. 11, Issue 8 August 2021 Impact Factor: SJIF 2021 = 7.492. P. 46-52 (N 23)

9. N.AKHMADJONOV Phraseological units is a mirror of the German national culture - Scientific journal of the Fergana State University, 2018.85-83

8. Parpieva O.R, Hojkarimova G.T, Nazirova A.M //FORMATION OF STUDENT PEDAGOGICAL SKILLS BASED ON THE REQUIREMENTS OF INNOVATIVE EDUCATIONAL ENVIRONMENT// Международном научно-практическом журнале “Экономика и социум”. Вып №6(85) 2021. 157-161 стр.

10. Odinaxon Raxmanovna Parpiyeva, Oripova Nodirahon Qodirjon qizi, Nazirova Arofatxon Maxmudjon qizi //Basics of a healthy lifestyle in the educational process// Journal of Pedagogical Inventions and Practices. Vol. 9. 06-2022. 89-94 page.

11. Razzokov Bakhtiyor Khabibullaevich, Nishonov Khosilbek Jakhongir ugli //The Importance of Teaching Folk Crafts to Teachers of Technological Education in the Educational Process// Journal of Pedagogical Inventions and Practices. <https://zienjournals.com>. Date of Publication: 18-06-2022. 118-120 page

12. Odinaxon Raxmanovna Parpiyeva, A.Ruzimatova //CREDIT-MODULE SYSTEM OF EDUCATION// O‘ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI. 20.08.2022 yil. 10-SON. 83-87 betlar

13. Odinaxon Raxmanovna Parpiyeva, Ro„zimatova Arofatxon Maxmudjon qizi //TA“LIM OLUVCHILARNI FANLARNI O„ZLASHTIRISHGA QIZIQTIRISH USULLARI// IJODKOR O‘QITUVCHI JURNALI. 5 OKTYABR / 2022 YIL / 22 – SON. 226-230 betlar

14. Bakhtiyor Kh. Razzokov //The System Of Formation Of Professional Culture Of Teachers Of Future Technological Education Through National Values// Journal of Positive School Psychology 2022, Vol.6, No.4, 1659-1665.

15. Razzokov Bakhtiyor Khabibullaevich //SPECIFICITY OF THE TYPE OF WOODWORKING IN FOLK APPLIED DECORATIVE ART// GALAXY INTERNATIONAL INTERDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL (GIIRJ). Vol. 10, Issue 6, June (2022)ю 418-422 page

16. Odinaxon Raxmanovna Parpiyeva, Melikuzieva Zulhumor Sherqozi qizi, Abdullaeva Umidahon Uktamjon qizi //INNOVATIVE EDUCATIONAL TECHNOLOGIES, THEIR NATURE, TYPES AND THEORETICAL FUNDAMENTALS// Texas Journal of Multidisciplinary Studies. Vol. 9. 06-2022. 123-126 page.

17. Odinaxon Raxmanovna Parpiyeva, Odinaxon Odilovna Djalalidinova //Tibbiy ta‘limda interfaol usullardan foydalanish// Международный научный журнал «Новости образования: исследование в XXI веке» № 3 (100), часть 1. сентябрь, 2022 г 565-569.

18. Eleonora Topvoldieva Mirzajonova, Odinaxon Raxmanovna Parpiyeva //Modern Special Preschool Education: Problems and Solutions// Journal of Pedagogical Inventions and Practices. Vol. 9. 06-2022. 100-106 page.

19. Sh.M.Tairov //Hayot faoliyati xavfsizligi sohasida bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy tayyorlashning nazariy jihatlari// “ IJODKOR O'QITUVCHI JURNALI” 5 IYUN / 2022 YIL / 19 – SON.

20. Toshboltayeva Nodira Ibrohimjonovna// The importance of thinking in the complex process of individual activity// International conference on Studies in Humanities, Education and Sciences. January 10 th, 2022. 69-70

21. Ibrokhimjonovna T. N. PERSONAL EDUCATION AS A MAIN BASIS OF SOCIETY'S DEVELOPMENT //Academicia Globe: Inderscience Research. – 2021. – Т. 2. – №. 03. – С. 1-2. e

22. Тошболтаева, Нодира Иброхимжоновна. //Важны аспекты упражнений в умственной деятельности психологическая интерпретация.// INTERNATIONAL JOURNAL OF DISCOURSE ON INNOVATION, INTEGRATION AND EDUCATION 1.5 (2020): 97-99.

23. Abdukadirova L. Y., Mirzajonova E. T. The importance of reading competencies in the context of the “industry 4.0” industrial revolution //Academicia: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2021. – Т. 11. – №. 1. – С. 205-210.

24. Abdukadirova L. Y. Basic scientific and theoretical approaches on learning coping behavior of students who are in difficult life situations //International Journal of Psychosocial Rehabilitation. – 2020. – Т. 24. – №. S1. – С. 543-550.

25. Laura A. THE MAIN APPROACHES TO THE STUDY OF THE DIFFICULT LIFE SITUATION IN SOCIO-PSYCHOLOGICAL RESEARCH //European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol. – 2019. – Т. 7. – №. 12.

26. H.Ganieva //SOCIAL AND PSYCHOLOGICAL MECHANISMS OF SELF-CONSCIOUSNESS OF STUDENTS// EURASIAN JOURNAL OF ACADEMIC RESEARCH Vol. 2 No. 4 (2021) 190-193 page

27. Водяха С.А., Мирзажоннова Э.Т. ПРОФЕССИОНАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКОЕ СОПРОВОЖДЕНИЕ ДЕТЕЙ С ОСОБЫМИ ПОТРЕБНОСТЯМИ КАК УСЛОВИЕ ИХ БЛАГОПОЛУЧНОЙ СОЦИАЛИЗАЦИИ //Психологическое благополучие современного человека. – 2019. – С. 631-635.

28. Mirzajonova E., Kiselev S. AGE-RELATED DIFFERENCES IN VISUAL OBJECT RECOGNITION IN CHILDREN //Psychophysiology. – 2020. – Т. 57. – С. S38-S38.

29. Mirzajonova E., Kiselev S. Child with hemorrhagic stroke in the right fronto-parieto-temporal area benefited from visuospatial therapy //Quality of life research. – 2020. – Т. 29. – №. SUPPL 1. – С. S189-S189.